

HOZIRGI BOSQICHDA G‘AZNACHILIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

08.00.07 — «Moliya, pul muomalasi va kredit» ixtisosligi

I bosqich tayanch doktaranti

ANNOTATSIYA

G‘aznachilik organlari tomonidan hal qilinadigan vazifalarning muhimligini hisobga olgan holda, g‘aznachilik tizimini rivojlantirish jarayoni hozirgi vaqtda davlat byudjeti siyosatining asosiy elementlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayni shu masalani inobatga olib, ushbu maqolada g‘aznachilik faoliyatining qonuniy-huquqiy asoslariga tayanish natijasida hozirgi bosqichda g‘aznachilik faoliyati samaradorligini oshirishning huquqiy jihatlariga e’tibor qaratildi.

KALIT SO‘Z VA IBORALAR: G‘aznachilik faoliyati, professional davlat xizmati, davlat boshqaruvi tuzilmalari, iqtisodiy muammolar, bozor tizimi, huquqiy asos.

АННОТАЦИЯ:

Учитывая важность задач, решаемых казначейскими органами, процесс развития казначейской системы в настоящее время является одним из основных элементов государственной бюджетной политики. С учетом этого вопроса в данной статье основное внимание уделяется правовым аспектам повышения эффективности казначейской деятельности на современном этапе в результате опоры на правовые и правовые основы казначайской деятельности.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА И ФРАЗЫ:

Казначайская деятельность, профессиональная государственная служба, структуры государственного управления, экономические проблемы, рыночная система, правовая база.

ABSTRACT:

Taking into account the importance of the tasks to be solved by the treasury bodies, the process of developing the treasury system is currently one of the main elements of the state budget policy. Taking this issue into account, this article focuses on the legal aspects of increasing the effectiveness of treasury activity at the current stage as a result of relying on the legal and legal foundations of treasury activity.

KEY WORDS AND PHRASES: Treasury activity, professional public service, state management structures, economic problems, market system, legal framework.

Iqtisodiyotning taraqqiyot tarixiga nazar tashlansa, XX asrning 20-30-yillarida mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirish maqsadida davlatning iqtisodiyotdagi o‘rnii oshib borganiga guvoh bo‘lish mumkin. Va u ko‘pgina iqtisodiy hamda ijtimoiy funksiyalarini o‘z zimmasiga olganini ta’kidlab o‘tish joiz. Bu esa o‘z navbatida professional davlat xizmatini shakllantirish va barcha davlat boshqaruv tuzilmalarini mustahkamlash lozim ekanligini talab etdi.

XX asrning 70-90-yillariga kelib, shu vaqtida navbatdagi ma’muriy qayta qurishlar sharoitida esa davlatning zimmasiga shu qadar ko‘p vazifalar yuklandiki, natijada siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammolarning ta’sir natijasida davlat bu majburiyatlarni to‘la-to‘kis bajarishga hamda «og‘ir yukni tortishga» qodir bo‘lmay qoldi. Mana bundayin holatlar davlat boshqaruv tizimida ma’muriy islohotlar o‘tkazish zaruratini keltirib chiqardi.

O‘zbekiston davlati o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, xo‘jalik yuritishning bozor tizimiga qarab qadam tashlashi, iqtisodiyot bozor infratuzilmasining shakllanishi va taraqqiy eta boshlashi mamlakat xo‘jalik jarayonlarini amalga oshirmoqlik uchun zarur sanalgan va zarur bo‘lgan huquqiy asosni yaratishni o‘z-o‘zidan talab etdi deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, dunyo globallashuv jarayonlarida faollikni qo‘liga olayotgan O‘zbekiston Respublikasi uchun davlatning boshqaruvi borasidagi institutlarini shakllantirish hamda uni tubdan isloh etish ishlarining ahamiyati tobora ortadi. Ushbu sohadagi islohotlar davlat moliyasi, davlat byudjeti va byudjet jarayonining boshqaruvi hamda uni tartibga solish ishlari bilan shug‘ullanuvchi organlar faoliyatining samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi. Ayni mana shu sabablar mazkur organlar faoliyatini amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar talablariga muvofiqlashtirish, oxirgi ijobiy ko‘rsatkichli natijalarini maqsad qilgan holda moslashtirish, shaklan va albatta, mazmunan yangi sifat pillapoyasiga ko‘tarish talab qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining g‘aznachiligi davlat moliyasining holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘playdigan, qayta ishlaydigan va tahlil qiladigan, turli darajadagi byudjetlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va byudjet ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradigan organdir.

G‘aznachilik o‘z ishining dastlabki yillardan boshlab davlat byudjetini tashkil etish va ijro etishda ko‘plab muammolarga duch keldi. Byudjet jarayonini tashkil etish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar mavjud emas edi, tartibga soluvchi soliqlarni hisobga olish va taqsimlash, shuningdek, ularni barcha darajadagi byudjetlar hisoblariga o‘tkazishning va ish yuritishning yagona tartibi ham yo‘q edi. To‘lanmagan to‘lov hujjatlari, kreditorlik qarzlari davlat byudjetidan orqada o‘sdi va eng muhimmi, davlat moliyasidan foydalanishda shaffoflik yo‘q edi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillika erishishdan oldingi g‘aznachilikning so‘nggi yillardagi faoliyatidagi mavjud vaziyatni tahlil qilib, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari

mablag‘larni to‘liq va alohida hisobga olish, samarali boshqarish uchun shart-sharoitlarni yaratishda davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarni isloh qilishni talab qiladigan muammolar mavjud degan xulosaga kelish mumkin. Davlat mablag‘lari hisobidan byudjet va byudjet daromadlariga to‘lovlarning to‘liqligi va o‘z vaqtida kiritilishini, shuningdek, davlat byudjet mablag‘larini sarflashning maqsadli xususiyatini nazorat qilishdek ishlarni amalga oshirish zaruratiga duch kelinganini ham eslab o‘tish kerak. Ayni shunday sabablar bilan, iqtisodiy sohada dastlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2002-yil 26-aprelda 144-son Qarori qabul qilindi.

Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini isloh qilish bo‘yicha yana muhim qadamlardan biri bu — 2004-yil 26-avgestdagi O‘zbekiston Respublikasining «Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida»gi 664-II sonli Qonuning qabul qilinishi bo‘ldi.

Mana shunday qaror va qonunlarning izdoshi sifatida yana ko‘pgina ishlar — qarorlar, qonunlar, nizomlar amalga oshirildi. Bularni O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 63-son (05.05.2005) buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1475-raqam (21.05.2005.) bilan ro‘yxatga olingan «Moliya organlarida byudjetdan mablag‘ oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning xarajatlari to‘lovini nazorat qilish tartibi haqida vaqtinchalik nizomning qabul qilinishida;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1599 raqam (24.07.2006.) bilan ro‘yxatga olingan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi (61-son, 12.07.2006.) va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki boshqaruving (279-son, 12.07.2006.) qo‘sma Qarori bilan qabul qilingan «Samqarqand viloyatimahalliy byudjetining g‘azna ijrosi hisobi to‘g‘risidagi vaqtinchalik qoidalar»da;

2007-yil 28-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Davlat byudjeti g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ - 594 - sonli Qarorida;

2007-yil 20-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 53-sonli Qarori bilan «O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining g‘aznachiligi to‘g‘risida Nizom»ning qabul qilinishida;

2007-yil 30-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 119-sonli buyrug‘i bilan «Davlat byudjeti g‘azna ijrosi bo‘yicha funksiyalarni chegaralash to‘g‘risida Nizom»ning tasdiqlanishida yaqqol ko‘rish mumkin.

Yuqorida sanalganlarning barcha-barchasi davlatning moliyaviy jihatdan yuksalishiga, hozirgi bosqichda g‘aznachilik faoliyati samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Jumladan, ushbu hujjatlar Moliya vazirligi tomonidan davlat byudjeti ro‘yxati tasdiqlanganidan so‘ng darhol quyi turuvchi byudjet mablag‘lari oluvchilarga byudjet majburiyatlari limitlarining

yillik hajmlari va asosiy rahbarlar tomonidan moliyalashtirishning choraklik hajmlari to‘g‘risida xabar berish huquqini ham belgilashda rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ‘YXATI:

1. Azimovna M. S., Shokhrukhovich U. F., Sodirovich U. B. ANALYSIS OF THE MARKET OF TOURIST PRODUCTS OF THE SAMARKAND REGION //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – No. 4. – C. 422-427.
2. Blank, I.A. Pul oqimlarini boshqarish/ I.A. Shakl. - Kiev: Nim markazi, Elga, 2013 .-- 620 p.
3. Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi. G’aznachilikda pul oqimlari ustidan kompleks monitoring qilish./SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 5. 458-460B. (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7070762>)
4. Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi. FINANCIAL RESOURCES OF THE TREASURY SYSTEM AND ISSUES OF THEIR MANAGEMENT./ Web of Scientist: International Scientific Research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023. 493-495p.

TAVSIYA ETILADIGAN INTERNET RESURSLARI:

<https://wos.academiascience.org>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7070762>

scientists.uz

https://t.me/jalilova_dilshoda_2292

https://t.me/ilmiy_yordam_beraman

<https://cyberleninka.ru>

<https://arxiv.uz>